

TEMURIYLAR VA SHAYBONIYLAR DAVRI TANGALARI

O'roqova Mubina Shoberdi qizi
Donayeva Gulnoza Abdumalik qizi
Eshqpo'latova Maftuna Zokir qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabalari

Annatsiya: *Sohibqiron Amir Temur qurgan ulkan saltanat, uning dunyo tarixida tutgan o'рни ko'pchilikka ma'lum. Ayni paytda uning davlat boshqaruvidagi islohotlari ham ahamiyatli bo'lib, hozirda o'rganilayotgan asosiy mavzulardan biri bo'lib qolmoqda. Amir Temur joriy qilgan pul islohoti ham shular jumlasiga kiradi. Quyida Sohibqiron davrida amal qilgan tangalar bilan tanishib chiqamiz.*

Amir Temur o'zining dastlabki hukmronlik yillaridan boshlab so'ngi chig'atoy sulolasi xonlari hukmronligi oqibatida to'la izdan chiqqan pul muomalasi ahvoliga e'tibor qaratgan.

Kalit so'zi: *Sohibqiron Amir Temur qurgan ulkan saltanat, Xorazm, Sulton Mahmud, pul islohoti, Temur unvoni, Fulusi adliya, Movorounnaxr, SHayboniylar hukmronligi.*

Аннотация: *Великая империя, построенная мастером Амиром Темуром, ее место в мировой истории известно многим. В то же время его реформы в государственном управлении также важны и остаются одной из основных изучаемых сейчас тем. Среди них – денежная реформа, предложенная Амиром Темуром. Ниже мы познакомимся с монетами, которые использовались в период Сохибкирана.*

С первых лет своего правления Амир Темур обращал внимание на состояние денежного обращения, которое было полностью разрушено из-за правления ханов Чигатайской династии.

Ключевые слова: *огромное царство, построенное владельцем Амиром Темуром, Хорезм, султан Махмуд, денежная реформа, титул Темура, правосудие Фулуси, Моворуннахр, правление Шайбани.*

Annotation: *The great empire built by the master Amir Temur, its place in world history is known to many. At the same time, his reforms in state administration are also important and remain one of the main topics currently being studied. Among them is the monetary reform introduced by Amir Temur. Below we will get acquainted with the coins that were used during the Sohibqiran period.*

From the first years of his rule, Amir Temur paid attention to the state of money circulation, which was completely destroyed due to the rule of the khans of the Chigatai dynasty.

Key word: *the huge kingdom built by the owner Amir Temur, Khorezm, Sultan Mahmud, monetary reform, Temur's title, Fulusi justice, Movorunnahr, Shaibani rule.*

KIRISH

Temuriylar davrida xam ikki xil qiymatda kumush tanga zarb qilish davom etdi. Yirik kumush tangalar "tanga", maydalari «miri» Temur unvoni "amir"ning qisqa shakli deyilgan.

Ulug`bek davridan ko`p mis tangalar bizgacha etib kelgan. Uning ilk mis tangalaridan biri diqqatga sazovor. Axsi, Samarqand, Buxoro, SHaxrisabz va Termiz tangalarida sher. orqasidan esa kuyosh chiqib kelayotgani tasvirlangan. Xijriy 832 yil (milodiy 1428-1429)larda Ulugbek ikki bosqichda muxim pul isloxoti o`tkazdi. Birinchi bosqichda bir xil mis tangalar bir kancha zarbxonalarda Andijon, SHoxruxiya, Samarqand, Buxoro, SHaxrisabz, Qarshi. Termizda chiqarildi.

Ikkinchi bosqichda islox qilingan tangalar ishlab chiqarish Buxoroda markazlashtirildi va nusxasi xamda sanasi o`zgartirilmagan xolda Ulug`bek o`limiga qadar, undan keyin xam zarb etildi. Ulug`bekning pul isloxoti xazina va axoli manfaatlarini ma`lum tarzda uyg`unlashtirdi. Temur va Temuriylar davrida zarb qilingan tangalar qator xususiyatlar bilan boshqa davr tangalaridan farq qilali. Zarb etilgan tangalarga maxsus tamg`a bosish ana shunday xususiyatdardan biri edi. Bunday naqshlar CHigatoy davri tangalarida XIII asrda solinib. XU asrga kelganda keng qo`llanila boshladi. Ular dumaloq, to`rtburchak, gulga o`xshash va xokazo shakllarda bo`lgan.

Xorazm o`ng qirg`og`i bilan CHig`atoy ulusi tarkibiga kirsada. chap kirg`og`i Urganch bilan birgalikda Jo`ji ulusi tarki-biga kirgan bo`lib. Oltin O`rda xonlari tomonidan boshqarilar edi. XIV asrning ikkinchi yarmida 1360-1380 yillarda taxt uchun 25 xon urush olib bordi, markaziy xokimiyatning zaiflashganligidan ko`ng`irotlar qabilasining maxalliy "sufiylar" sulolasi ustalik bilan foydalandi. Ular taxminan 1360 yillardan Xorazmni mustaqil idora qila boshladilar. xatto Xorazmning o`ng qirg`oq erlarini qo`shib oldilar.

1372 yili Temur Xorazmga yurish qilib o`zita tobe qiladi. CHunki YUusuf Sufiy bir safar Amir Temurni tan olsa. bir safar Oltin O`rda xoni Tuxtamishni tan olar edi. SHuning uchun Amir Temur Xorazmga bir necha marta yurish qilgan. 1388 yil Urganchni egallaydi. Amir Temur vafotidan sung Xorazmda yana Oltin Urda xonlari xukmronlik qildi.

1412 yili Amir Temurning o'g'li SHoxrux Xorazmni qayta qo'lga kiritadi. Mo'g'ullar istibdodidan so'ng Xorazmda zarb qilingan tangalar bizgacha etib kelmagan. Temur xukmronligi davrida kichik oltin tangalar xam zarb etilgan. Xorazmda CHig'atoylar dinoriga o'xshash yirik kumush tangalar bo'lmagan, Xorazmni juld dirxamlari Movorounnaxr CHig'atoy dirxamlaridan farq qilgan. Birinchidan ularning qiymati turlicha bo'lib u asta-sekin kamayib borgan. XIII asr oxirlariga kelib xamma kumush tangalarning ogirligi 2,3 gramm bo'lsa, XIU asr boshlarida 1,9 gramm, 1380 yilda 1,5 gramm, XU asrning boshlarida esa 1,1 grammni tashkil qilgan. Oltin tangalarning og'irligi esa 1,10 gramm-1,15 va undan oz bo'lgan.

XIII asrga doir Xorazmning birinchi dirxamlarida usha davr xokimiyatini boshqarayotgan xukmdor nomi aks etgan. Tanganing bir tomonida diniy oyatlar yoki Qur'ondan olingan kalima, ikkinchi tomonida tanga chiqarilgan sana, joy zarb qilingan. Tangalardagi yovuvlarda xatolar xam bo'lgan. xarflar tushib qolgan yoki qo'shilib ketgan.

Temurning kumush tangalari uning nomidan soxta mo'g'ul xon-lari Suyurgatmish va Sulton Maxmud nomlari bilan Movorounnaxr. Xuroson. eron. Ozarbayjon. Iroqning 40 dan ortiq shaxarlarida zarb etilgan. Movorounnaxr va Xurosonning bosh xukmdori sifatida SHoxrux Uirzo Astrobod, Buxoro, Damg'on. Isfaxon, Kirman, Qum, Nishopur. Marv, Samarqand, Sabzavor, Sultoniya, Tabriz, Xorazm, Xirot, SHeroz va boshqa shaxarlarda o'z nomi bilan kumush tangalar zarb qilib. pul zarbi va savdosini tartibga soldi. Bu davrda ichki chakana savdoda keng ko'lamda muomalada bo'lgan mayda mis chaqa "fulus"lar ko'proq maxalliy xokimlar tomonidan zarb qilinardi.

1428 yili Ulugbek tomonidan o'tkazilgan fulusiy pullar isloxoti katta axamiyat kasb etdi. Axolining ichki savdo munosabatlariga ko'proq jalb etish maqsadida Ulugbek engil vaznda zarb etilgan va muomalada yurgan barcha chaqa pullarni bekor qildi. Ichki savdoni mayda mis pullarga bo'lgan talabini qondirish uchun bir vaqtning o'zida Buxoro, Samarqand, Qarshi, Termiz, Toshkent. SHoxruxiya va Andijon shaxarlarida zarbxonalari tashkil qilinib bir xil vazndagi fuluslar zarb qilinib. muomalaga chiqarildi. Mis pullarni zarbini markazlashtirish maqsadida boshqa shaxarlardagi zarbxonalarga barxam berilib. Buxoro zarbxonasi saqlab qolingan. Xalk orasida "Fulusi adliya" ya'ni, "adolatli chaqa" nomi bilan shuxrat topgan bu yangi mis fuluslar Movorounnaxrning bar-cha shaxar va qishloqlarida keng muomalaga kirib davlatning ichki savdosini nakd pul bilan ta'minladi.

Ulug'bekning bunday isloxoti mamlakatda xunarmandchilik maxsulotlarining ichki chakana savdosi uchun keng yo'l ochib bergan edi.

1428-29 yillardagi isloxot pul muomalasini yaxshilash. Mis tangalar qadrini oshirish maqsadida amalga oshirilgan edi. Natijada u bir qancha samaralar berdi. Unga ko'ra 1420 yili zarb etilgan mis tangalar zarbxonalarga topshirilib, ularning o'rniga ogirligi 1,5-2 barobar ko'p bulgan tangalar zarb etilgan. Qulaylik uchun zarbxonalar Buxorodan tashqari Andijon, Qarshi, Samarqand, Termiz, SHoxruxiyada xam tashkil qilingan. Natijada pulning qadri kutarilgan.

O'n beshinchi asr oxiriga kelib bo'shashib ketgan Temuriylar davlati xam iqtisodiy, xam siyosiy jixatidan inqirozga yuz tutishi natijasida SHayboniylar boshchiligidagi o'zbeklar tomonidan zabt etildi. Mamlakatda SHayboniylar sulolasiga asos solindi. By cylola XIV asrning oxiriga qadar davlatni idora qilganlar.

XIV asrning 40-50 yillariga kelib SHayboniylar davlati tinimsiz o'zaro urush olib boradigan kichik-kichik xokimlik va viloyatlarga bo'linib ketdi. Faqat 70-80 yillarda Abdulloxon butun mamlakatni birlashtirishga muvaffak bo'ldi.

SHayboniylar xukmronligi davrida mamlakat iqtisodiyotiga ta'sir ko'rsatib, tangalar zarb qilishda ancha o'zgarishlar qilishdi. By davrda Temuriylar davridagi zarb qilingan kumush va mis tanga-lar xam mavjud edi. SHayboniylar ularni tamg'alab, qiymatini kamaytirganlaridan so'ng mazkur tangalar savdo aloqasida yurgizila boshlandi. SHayboniylar nomi bilan yangi kumush va mis tangalar zarb qilishda, oz miqdorda oltin tangalar zarb qilindi, faqat Abdulloxon tomonidan.

SHayboniylar zarb qilgan kumush tangalar Temuriylar davrida zarb kilingan tangalardan farq qilgan. Lekin mis tangalar Temu-riylar davrida zarb qilingan mis tangalarga o'xshash edi. Ular ko'p xollarda chiroyli bezatilgan dinorlardan tashqari mayda mis pullar xam zarb qilganlar. Bip dinorga oltita mis pul to'g'ri kelgan. mis pullar etiborsizlik bilan zarb qilingan. Bizgacha etib kelgan mis pullar yozuvlari uchib ketganligi uchun yaxshi o'rganilmagan.

SHayboniylar davri tangalaridagi yozuvlar ko'p xollarda nasx yoki kufiy uslubida bitilgan. Ba'zan tomonlardan biridagi yozuv o'rniga turli naqshlar yoki xayvon, qushlarning rasmi berilgan.

Xayvonlar yomon tasvirlangan, xozir ularni ajratish xam qiyin. XV asrda bo'lganidek XVII asrda xam kumush va mis tangalar ni tamg'alash uslubi davom etgan. Tangalar ilgari nima maqsadda tamg'alangan bo'lsa, shayboniylar davrida xam tamg'alashni moxiyati xarakteri shundayligicha qolgan.

By davlatda ko'plab zarbxonalar mavjud edi. Andijon, Aкси, Buxoro va boshqa shaxarlarda tangalar zarb qilingan. Faqat Toshkent, Samarqand, Buxoro va Balxda muntazam ravishda tangalar zarb qilingan. Xurosonni qo'lga

kiritganda. Xirot, Mashxad, Nishopur, Saraxs va boshqa shaxarlarda zarb qilingan.

Bundan tashqari uncha katta bo'lmagan vaqtli zarbxonalar xam bo'lgan. XVI asrda bunday zarbxonalar mis dinorlarga tamg'a bosish ishi bilan shug'ullanganlar. mas.: Vobkani (Vobkent), SHavdaro va Miyonqol, Parak singari zarbxonalardir, ular shaharlarda emas, balki uncha katta bo'lmagan axoli yashaydigan joylarda ish yuritilgan.

Kumush tangalarga tamg'a bosish birinchidan oldin man etilgan tangalarni qaytadan savdo muomalasiga kiritishga imkon yaratilsa, ikkinchidan xazina foyda ko'rar edi. Lekin mavjud kumush tangalar "eski" va "yangi" tangalarga bo'linar edi. O'nta eski tanga to'qqizta yangi tangaga to'g'ri kelar edi. Bu xol xazina uchun boylik xisoblanar edi. SHayboniylar davlati inqirozga yuz tutgan bir vaqtda ba'zi viloyat xukmdorlari o'z nomlari bilan kumush tangalar zarb qilganlar. Xullas, SHayboniylar axoli turmush darajasini yaxshilash niyatida o'tkazilgan 1507-1509 yillardagi isloxoti natijasida u to'g'ri vaqtgacha mavjud turli o'lchov va og'irliklardagi tangalar o'rniga bir xil og'irlik ulchovidagi (5,2gr.) kumush va mis tangalarni joriy etadi. BU albatta pul savdo munosabatlarini barqarorlashtiradi. Ammo Muxammad SHayboniylar o'limidan keyin bir tomondan o'zaro qarama-qarshilik, ikkinchi tomondan Boburning Samarqandni olish niyatidagi xarbiy yurishlaridagi janglar mamlakat iqtisodiy xayotiga katta zarar bo'lib, pul qadrsizlangan. SHuning uchun xam Kuchkunchixon 1515 yildan boshlab pul isloxotiga kirishib, faqat 1527 yilga kelib axvolni to'g'rilashga erishadi.

SHayboniylar davlati inqirozga uchragandan so'ng xokimiyat tepasiga joniylardan Muxammad Joniy taxtga o'tirdi-XUSH asr o'rtalariga qadar xukmronlik qilganlar. Bu davr mobaynida mamlakat iqtisodiy xayotida katta o'zgarishlar qilishgan. Ular XVII asrda kumush, mis tangalar zarb qilganlar, 1702 yildan oltin tangalar chiqarganlar.

SHayboniylar dastlab tangalarning og'irligini bir misqol, ya'ni 4,8 gramm miqdorida zarb qilgan bo'lsalar. 17 asrga kelib tangalarni og'irligi 4,4 grammga tushib qoldi. Joniylarning zarb qilgan tangalari XVI asrdagi tangalardan farq qilmaydi. ular zarb qilgan kumush va oltin tangalardagi yozuvlar nasx uslubida berilgan. XVII asrda xam kumush tangalar "eski" va "yangi" tangalarga bo'lingan. BU davrdan boshlab kumush tangalar a'lo sifatli sof kumushdan tayyorlangan. Mazkur tangalar "eski" deb e'lon qilinganidan so'ng 10% qimmatini yo'qotgan, keyinchalik tangalarda kumush miqlori kamayib borgan. 17-asrning o'rtalarida tangalarning yarmi kumushdan iborat bo'lgan. SHunday bo'lsa xam zarb qilingan tangalar «yangi» xisoblanib ular yuz foiz kumushdan zarb qilingan tangalardek muomalada yuritilgan. Ammo davlat

ularni «eski» tangalar deb e`lon qilishi bilanoq tangalar yarim qimmatini yo`qotar edi.

Tangalarning 50% kumushdan zarb qilinayotganligiga qoniqmagan joniylar 17-asrning oxirida kumush miqdorini 25% ga tushirdi. Mazkur tangalar xatto ko`rinishidan xam kumush tangalarga o`xshamas edi.

18-asrning boshlariga kelib kumush tangalardagi kumush miqdori 9% ga tushib qoldi. «Eski» tangalarni qiymati tez-tez tushib turganiligi sababli yirik savdo ishlarini olib borish qiyinlashdi. Savdo ishlarini engillashtirish maqsadida 18-asrning boshlarida ashrafiy yoki tilla deb nom olgan oltin tangalar zarb qilina boshlagan.

XULOSA

Sohibqiron Amir Temur qurgan ulkan saltanat, uning dunyo tarixida tutgan o`rni ko`pchilikka ma`lum. Ayni paytda uning davlat boshqaruvidagi islohotlari ham ahamiyatli bo`lib, hozirda o`rganilayotgan asosiy mavzulardan biri bo`lib qolmoqda. Amir Temur joriy qilgan pul islohoti ham shular jumlasiga kiradi. Quyida Sohibqiron davrida amal qilgan tangalar bilan tanishib chiqamiz.

Amir Temur o`zining dastlabki hukmronlik yillaridan boshlab so`ngi chig`atoy sulolasi xonlari hukmronligi oqibatida to`la izdan chiqqan pul muomalasi ahvoriga e`tibor qaratgan. Shu sabab mamlakat iqtisoiy ahvolini yo`lga solish maqsadida XIV asrning 80-yillari atrofida pul islohotini o`tkazdi.

Hozirda buyuk davlat arbobi nomi bilan bitilgan mashhur tangalarning eng qadimgisi 1372-1373-yillarga borib taqaladi. Ular chig`atoy tangalari andazasi bo`yicha zarb qilingan. Bundan tashqari, katta hajmdagi chakana bozor savdosi ehtiyojini qondirish maqsadida ko`p miqdorda mis chaqalar – “fulus”lar zarb ettirilgan. Bu tangalar (“fulus” yoki “fulus tangalari”) Amir Temur nomi bilan zarb ettirilib, ular juda keng tarqalgan. Tangalar, asosan, Amir Temur nomidan Samarqand va boshqa bir qator viloyatlarda zarb ettirilgan.

Amir Temur davrida tilla tangalarning 12 turi mavjud bo`lib, ular 1379-1388-yillarda Xorazm to`liq bosib olinganidan so`ng zarb etila boshlangan. Ayni vaqtda, Amir Temurning oltin tangalarida ilgari oltin tangalarda zarb qilingan “dinar” so`zi yo`q edi. Xorazm tilla tangasi kumush dinorga, ya`ni 6 dirhamga teng bo`lgan. Dinar so`zi tilla tangani emas, balki undagi kumush miqdorini, ya`ni bu tangada o`sha vaqtda amal qilingan tanga tizimidagi oltin-kumush nisbatiga binoan mavjud kumush miqdoriga teng edi. Amir Temur va Temuriylar tangalari o`ziga xos uslubi: ulardagi o`simlik va geometrik bezaklarning mutanosibligi; arab, mo`g`ul va turk yozuvlari bitilgan doiralar; yulduzlar burji, “baxt burjlari” bilan boshqa tangalardan farq qilgan.

Sohibqiron pul islohotining asosini ikki xil qiymatga ega bo`lgan kumush tangalar: yiriklari “tanga” deb atalib, diametri 2,5-3 sm., og`irligi 6,40 gr. va

nisbatan kichiklari esa “miri” – diametri 1,5-1,6 sm., og’irligi 1,5 gr.ni tashkil qilgan. Ya’ni, bir tanga to’rt “miri”ga teng bo’lgan.

Tangalardagi arab va mo’g’ul tillarida bitilgan yozuvlar ayrim farqlarga ega bo’lsa-da, tangalar asosan bir andazada zarb qilingan. Tangalarning aversi (old)da birinchi o’rinda chingiziylar avlodidan bo’lmish (soxta xon) Muhammad Suyurg’atmish (1370-1388-yillar) hamda Sulton Mahmud nomi, shuningdek, mamlakat gerbi “uch doira” aksi tushirilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov.I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q. Mulokot. 5-son. 1998.
2. Karimov.I.A. O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida; xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T. 1997.
3. Azamat Ziyov. O`zbek davlatchiligi tarixi. T. 2000.
4. ernazarova.T.,Kognev.£. Tangalar o`tmish darakchilari. T. 1977.
5. Kobrin.V.B, Vspomogatel`no`e istoricheskie distsipli`no`.M. 1990.
6. Ayupova.F. Qadimiy tangalar. Moziydan sado. 2000y.1-2 son.
7. To`xtaev.I. Tangalar tilga kirganda. T. 1989.
8. O`zbekiston pullari. «Fan va turmush» . 5-6 sonlar. 1995
7. Uktamovna, M. M. (2023, October). EPITET TARIXI VA NAZARIYASIGA BIR NAZAR. In International Scientific and Current Research Conferences (pp. 127-132).
8. Uktamovna, M. M. (2023). O`ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA EPITETNING CHOG`ISHTIRMA TADQIQI. OBRAZLI EPITETLAR. MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH, 2(23), 439-444.
9. Mamadjanova, M. (2023). ESSENTIAL CHARACTERISTICS OF EPITHET. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(10), 89-91.
10. Uktamovna, M. M. (2022). EPITETNING LINGVISTIK TABIATI. IJTIMOIIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIIY JURNALI, 2(8), 26-30
11. Uktamovna, M. M. (2023). TRANSFERRED EPITHET IN ENGLISH LANGUAGE. Научный Фокус, 1(1), 921-924.